

KORPORATIV FAOLIYATDA YURIDIK XIZMATNING AHAMIYATI**Saparova Fotima Mirzaraxmon qizi***Toshkent davlat transport universiteti yurisprudensiya yo'nalishi "Xalqaro ommaviy huquq" kafedrasida 2-bosqich Yu-13 guruh talabasi.***Bahriddin Imomov Panjiyevich***Toshkent davlat transport universiteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada korporativ faoliyatda yuridik xizmatning o'rni, uning asosiy funksiyalari va tashkilot samaradorligiga ta'siri tahlil etiladi. Shuningdek, yuridik xizmatning huquqiy risklarni kamaytirishdagi roli, korporativ boshqaruv tizimidagi ahamiyati va amaliy muammolari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida yuridik xizmatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan

Kalit so'zlar: yuridik xizmat, korporativ boshqaruv, risk, kompaniya, shartnomalar.

Annotation. This scientific article analyzes the role of legal services in corporate activities, their main functions, and their impact on organizational efficiency. It also examines the role of legal services in reducing risks, their importance in the corporate governance system, and existing practical challenges. Based on the research findings, recommendations for improving services have been developed.

Keywords: legal service, corporate governance, legal risk, company, contracts.

Аннотация: В данной научной статье анализируется роль юридической службы в корпоративной деятельности, её основные функции и влияние на эффективность организации. Также рассматриваются значение юридической службы в снижении рисков и существующие практические проблемы. По результатам исследования разработаны рекомендации по совершенствованию деятельности юридической службы.

Ключевые слова: юридическая служба, корпоративное управление, риски, компания, договоры.

Kirish.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ faoliyat tobora murakkablashib, turli huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Har qanday korxonada yoki tashkilot o'z faoliyatini samarali yuritishi uchun nafaqat iqtisodiy va moliyaviy jihatlarga, balki huquqiy asoslarning mustahkamligiga ham alohida e'tibor qaratishi zarur. Chunki xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi va ularga rioya qilmaslik jiddiy huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Korporativ faoliyat jarayonida tashkilotlar ko'plab shartnomaviy munosabatlarga kirishadi, davlat organlari bilan o'zaro aloqada bo'ladi, ichki boshqaruv tizimini shakllantiradi hamda xodimlar bilan mehnat munosabatlarini yo'lga



qo'yadi. Ushbu jarayonlarning barchasi huquqiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini talab qiladi. Aynan shu nuqtada yuridik xizmatning o'rni va ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Yuridik xizmat korxonaning huquqiy xavfsizligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. U tashkilot faoliyatining qonunchilikka muvofiqligini nazorat qiladi, huquqiy xatoliklarning oldini oladi hamda turli nizolar yuzaga kelganda korxonaning manfaatlarini himoya qiladi. Bundan tashqari, yuridik xizmat rahbariyatga strategik qarorlar qabul qilishda huquqiy jihatdan asoslangan maslahatlar berib, biznes jarayonlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda raqobat kuchayib borayotgan sharoitda korxonaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning huquqiy jihatdan qanchalik himoyalanganiga bog'liq. Shu sababli yuridik xizmat nafaqat yordamchi bo'lim, balki korporativ boshqaruvning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. U korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlash, moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish va ishbilarmonlik obro'sini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur mavzuni o'rganish korporativ faoliyatda yuridik xizmatning tutgan o'rni, uning asosiy vazifalari va amaliy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Yuridik xizmat — davlat organi va tashkiloti faoliyatini huquqiy ta'minlash maqsadida qonunchilikda belgilangan me'yor va mezonlarga muvofiq majburiy tartibda tashkil etiladigan yoki joriy qilinadigan mustaqil tarkibiy tuzilma yoxud lavozim. Yuridik xizmat bevosita davlat organi va tashkilotining rahbariga bo'ysunadi. Yuridik xizmat yuridik departament, yuridik boshqarma, yuridik bo'lim, yuridik byuro shaklida tashkil qilinishi yoxud bitta shtatdan iborat bosh yuriskonsult, yetakchi yuriskonsult, katta yuriskonsult yoki yuriskonsultdan iborat bo'lishi mumkin. Yuridik xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirishga va ularni davlat organi va tashkilotining boshqa tarkibiy tuzilmalariga qayta taqsimlashga yo'l qo'yilmaydi⁴²

Korporativ faoliyat zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, yirik va o'rta biznes subyektlarining samarali ishlashini ta'minlaydi. Bugungi globalashgan sharoitda kompaniyalar faqat mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, murakkab boshqaruv, moliyaviy, huquqiy va strategik tizimlar asosida faoliyat yuritadi. Yuridik xizmat korporativ faoliyatning barcha yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi, boshqaruv qarorlarining qonuniyligini ta'minlaydi, moliyaviy operatsiyalarni huquqiy jihatdan himoya qiladi va shartnomalar orqali operatsion faoliyatni mustahkamlaydi. **Huquqiy maslahat berish bunda** korxonaning rahbariyati va xodimlariga qonunchilik bo'yicha maslahatlar berish boshqaruv qarorlarining to'g'ri qabul qilinishiga yordam beradi.

Yuridik xizmatning asosiy funksiyalari. Korporativ tuzilmada yuridik xizmat quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: shartnoma ishi (tayyorlash, tahlil qilish, ijrosini nazorat qilish); majburiyatlarning buzilishini oldini olish (kontragentlarni tekshirish, shartnoma shartlariga rioya etilishini monitoring qilish); nizolarni hal qilish

⁴² <https://lex.uz/docs/-3098964> Davlat organlari va tashkilotlarning yuridik xizmati to'g'risida nizom





(da'vogarlik, sudgacha va sud tartibidagi ishlarni yuritish); mahalliy hujjatlar ishlab chiqish (nizom, korporativ kodeks, ichki tartiblar); huquqiy monitoring (qonunchilikdagi o'zgarishlarni kuzatish).⁴³

Yuridik xizmatning asosiy vazifalari; shartnomalarni tuzish, tahlil qilish va ularning ijrosini nazorat qilish, kontragentlarning ishonchliligini tekshirish, sudgacha va sud tartibidagi nizolarni yuritish, ichki mahalliy hujjatlarni ishlab chiqish, qonunchilikdagi o'zgarishlarni kuzatib borish va kompaniyani ularga moslashtirish, xodimlar va rahbariyatga huquqiy maslahatlar berish. Yuridik xizmat bo'lmagan taqdirda yuzaga keladigan muommolar ham mavjud bo'lib ular noto'g'ri tuzilgan shartnomalar orqali kelib chiqadigan yo'qotishlar, sud jarayonlarida yo'qotishlar orqali kelib tushadigan tovon puli, soliq va ma'muriy jarimalar shular jumlasidandir. Nizolar yuzaga kelishining oldini olish, kompaniya bozor obro'sining saqlanishi, investorlar va hamkorlar ishonchining ortishi proaktiv yuridik xizmatning afzalliklari hisoblanadi. Yuridik xizmat huquqiy risklarni kamaytirishda markaziy ro'l o'ynaydi. Proaktiv yondashuv bu yuridik xizmat nizolar yuzaga kelishidan oldin ularning oldini olishga harakat qiladi, riskni erta aniqlash esa kompaniya faoliyatining turli sohalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy xavflarni aniqlaydi, risklarni minimallashtirish choralari aniqlangan risklar bo'yicha yuridik xizmat ularni kamaytirish yoki butunlar bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, proaktiv yuridik xizmatga qilingan xarajatlar nizolardan keying xarajatlarga qaraganda bir necha barovar arzonroq tushishi aniqlangan.

Zamonaviy kompaniyalarda yuridik xizmat nafaqat "xavfsizlik klapani", balki strategik sherikdir. Yangi bozorlarga chiqish, qo'shilish va sotib olish, intellektual mulkni himoya qilish, komplayens-tizimlarni joriy etish kabi masalalarda yuristlarning ishtiroki majburiydir. Masalan, M&A bitimlari oldidan o'tkaziladigan huquqiy tekshiruv (legal due diligence) kelajakdagi milliardlab so'mlik risklarning oldini oladi⁴⁴

Zamonaviy kompaniyalarda yuridik xizmat nafaqat "xavfsizlik klapani", balki strategik sherikdir. Yangi bozorlarga chiqish, qo'shilish va sotib olish (M&A), intellektual mulkni himoya qilish, komplayens-tizimlarni joriy etish kabi masalalarda yuristlarning ishtiroki majburiydir. Masalan, M&A bitimlari oldidan o'tkaziladigan huquqiy tekshiruv (legal due diligence) kelajakdagi milliardlab so'mlik risklarning oldini oladi⁴⁵

O'zbekiston Respublikasida korporativ munosabatlar va yuridik xizmat faoliyati doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. 2024-yil sentyabr oyida Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 2024-yil dekabr oyida Senat tomonidan ma'qullangan "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirish munosabati

⁴³ Saidov A. Korporativ huquq asoslari. – Toshkent: Adolat, 2022. – 280 b. (115–130-betlar)

⁴⁴ Karimov B. Yuridik xizmatning korporativ risklarni boshqarishdagi roli // Huquq va boshqaruv. – 2023. – №2. – B. 45–52 (49-bet)

⁴⁵ Karimov B. Yuridik xizmatning korporativ risklarni boshqarishdagi roli // Huquq va boshqaruv. – 2023. – №2. – B. 45–52 (49-bet)



bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunda yuridik shaxslarning tashkiliy huquqiy shakillarini takomillashtirish, korporativ shartnoma institutini joriy etish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va axborotni oshkor qilish sohalariga o'zgarishlar kiritildi. O'zbekiston Respublikasida davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Prezidentimizning 29.06.2021-yildagi PQ-5168-son qaroriga asosan, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari ta'skil etilgan. Ularning asosiy vazifalari yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash, sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatish, xodimlar huquqiy savofxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning qonuniy, puxta va sifatli bo'lishini ta'minlash asosiy vazifalari hisoblanadi. Yuridik xizmat ko'rsatish markazlarining eng muhim hususiyati ularning to'liq mustaqilligi hisoblanadi. OECD Good Corporate Governance prinsiplari yaxshi korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari xalqaro standart darajasini ko'rsatib beradi.

Korporativ madaniyat va ishonch muhiti. Yuridik xizmat xodimlar va rahbariyat o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, axloqiy va qonuniy standartlarni mustahkamlash orqali sog'lom korporativ muhit yaratadi. Bu esa kompaniyaning ichki va tashqi ishonchini mustahkamlaydi⁴⁶

Korporativ faoliyatda yuridik xizmatning ahamiyatini bo'yicha amaliy tavsiyalar bera oladigan muommolar mavjud bo'lib, ular yuridik xizmatning strategic qarorlar qabul qilishda yetarlicha ishtirokning yetmasligi ya'ni ko'plab kompaniyalarda yuristlar faqatgina nizo tug'ilgan vaqtda jalb qilinishi keyinchalik huquqiy muommoning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, yuridik xizmatning moddiy-texnik va kadrlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi hisoblanadi. Bunda ba'zi kompaniyalarda yuridik bo'limlar kam shtatli, byudjeti cheklangan bo'lishidir va bu sifat va o'z vaqtda ishlashga to'sqinlik qiladi va xodimlar huquqiy savodxonligining pastligi hisoblanadi ya'ni yuridik xizmatning barcha ishlarni o'zi hal qilishi mumkin emas. Boshqa bo'limlar xodimlarining ham huquqiy bilimlari ma'lum darajada bilishi talab qilinadi aks holda xodimlar o'z vazifasini amalga oshirayotgan vaqtda qonun buzarlikka yo'l qo'yishi mumkin. Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda amaliy tavsiyalar berish bo'yicha doimiy yuridik maslahatchi bilan ishlashni yo'lga qo'yish va barcha departamentlarni qamrab olgan holda, muntazam ravishda risklarni aniqlab borish va baholash, hujjat aylanishini raqamlashtirish, "E-huquqshunos" kabi tizimlardan foydalanish kabi harakatlarni amalga oshirish samarali tavsiyalar hisoblanadi va bugungi kunda yuridik xizmatning ajralmas qismiga aylanishi zarur bo'lgan qismi hisoblanadi. Zamonaviy raqobat muhitida yuridik xizmatni faqat yordamchi tuzilma sifatida emas, balki korporativ boshqaruvning ajralmas va strategic jihatdan muhim qismi sifatida qarash zarur.

⁴⁶ OECD. Corporate Governance Factbook 2022. – Paris: OECD Publishing, 2022. – P. 87–90.



Korporativ faoliyatda yuridik xizmatning ahamiyati nafaqat huquqiy nizolarni hal qilish, balki ularning oldini olish, strategik qarorlarni qonuniy jihatdan mustahkamlash va kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashdan iborat. Shu sababli, yuridik xizmatni faqat yordamchi tuzilma sifatida emas, balki korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida qarash zarur⁴⁷

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yuridik xizmat korporativ faoliyatning markaziy elementlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat huquqiy nizolarni hal qilish vositasi, balki kompaniyaning strategik barqarorligini ta'minlovchi muhim tizimdir. Yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlarga asosan, bir qancha korporativ huquqda yuridik xizmatning ahamiyatli taraflarini keltirishimiz mumkin; Yuridik xizmatning asosiy ahamiyati uning oldini olish funksiyasida namoyon bo'ladi. Shartnomalarni oldindan sinchkovlik bilan tayyorlash, kontragentlarni tekshirish va qonunchilikdagi o'zgarishlarni kuzatib borish orqali kompaniya yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sud jarayonlari, jarimalar va obro' yo'qotishdan saqlanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, bir birlik proaktiv xarajat kelajakda uch-besh birlik nizoviy xarajati tejaydi, yuridik xizmat strategik qarorlar qabul qilish jarayonining ajralmas ishtirokchisi bo'lishi kerak. Yangi bozorlarga chiqish, qo'shilish va sotib olish bitimlari, intellektual mulkni himoya qilish kabi masalalarda yuristlarning ishtirokisiz kompaniya kutilmagan huquqiy tuzoqlarga tushib qolishi mumkin va yuridik xizmat korporativ madaniyat va ishonch muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xodimlar va rahbariyatning huquqiy savodxonligini oshirish, ichki axloqiy va qonuniy standartlarni mustahkamlash orqali kompaniyada qonun ustuvorligi tamoyili qaror topadi. Bu esa nafaqat ichki tartib-intizomni yaxshilaydi, balki investorlar, hamkorlar va mijozlar oldida kompaniyaning ishonchlilik darajasini oshirad, hamda yuridik xizmatning yo'qligi yoki sust faoliyati kompaniyani jiddiy moliyaviy va huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Noto'g'ri tuzilgan shartnomalar, kontragentlarning ishonchligini tekshirmaslik, qonunchilikdagi o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirish kabi kamchiliklar sud jarayonlarida yutqazish, katta miqdordagi tovon to'lash, soliq va ma'muriy jarimalar, mehnat nizolari tufayli ish jarayonining to'xtab qolishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
2. Saidov A. Korporativ huquq asoslari: darslik. – Toshkent: Adolat, 2022. – 280 b.
3. Karimov B. Yuridik xizmatning korporativ risklarni boshqarishdagi roli // Huquq va boshqaruv ilmiy-amaliy jurnali. – 2023. – №2. – B. 45–52.
4. Gilson R. The Role of Lawyers in Corporate Governance // Stanford Law Review. – 2020. – Vol. 72, No. 1. – P. 115–140.

⁴⁷ Coffee J. Gatekeepers: The Professions and Corporate Governance. – Oxford, 2021. – P. 210–215.





5. American Bar Association (ABA). The Value of Preventive Law: A Business Case for Proactive Legal Services. – Chicago: ABA Publishing, 2021. – 45 p.
6. World Bank. Doing Business 2023: Comparing Business Regulation in 190 Economies. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2023. – 120 p.
7. OECD. Corporate Governance Factbook 2022. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 210 p.
8. Coffee J. Gatekeepers: The Professions and Corporate Governance. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 350 p.
9. Tursunov D. Korporativ faoliyatda shartnoma ishini yuritishning huquqiy asoslari // O‘zbekiston huquq jurnali. – 2022. – №4. – B. 33–39.
10. Xalilov R. Komplayens-tizim va korporativ xavfsizlik // Biznes ekspert. – 2023. – №1. – B. 28–31.